


O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2019-yil yanvar-sentabr)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida respublika korxonalaridan 234,7 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,0 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 1,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 8,9 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 1,1 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 6,2 % ga o'sishi hisoblanadi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %



* **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi, %



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 30,8 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan shag'al – 56,6 % ga oshdi, shu bilan birga, ko'mir qazib olish 6,8 % ga, neft - 6,5 % ga, gaz kondensati - 3,3 % ga, chaqiq tosh - 9,1 % ga, tabiiy gaz qazib olish 0,8 % ga pasaygan.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan
Ko'mir, ming t.	2908,3	2711,8
Neft, ming t.	561,5	524,9
Tabiiy gaz, mln.kub.m.	45 402,8	45058,3
Gaz kondensati, ming t.	1609,6	1557,2
Chaqiq tosh, ming t.	1092,6	993,6
Shag'al, ming t.	287,3	449,9

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati



 O'sish sur'atining kamayishi

 O'sish sur'atining ko'payishi


Konchilik (yanvar-sentabr)



Tabiiy gaz qazib olish,
mlrd.kub.m



Ko'mir qazib
olish, ming.t



Neft qazib olish
(gaz kondensati bilan
birga), ming.t

Ishlab chiqaradigan sanoat


2019-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 188,0 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,1 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,5 % ni (2018-yil yanvar-sentabr oylarida - 1,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 25,1 % (26,8 %), o'rta-quyi texnologiyali - 38,2 % (33,4 %) va quyi texnologiyali - 35,2 % (38,1 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %


2018 yil
yanvar-sentabr

2019 yil
yanvar-sentabr



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 21,6 % (2018-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi - 22,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 22,7 % (6,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 16,1 % (6,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 15,9 % (8,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 9,9 % (3,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati



■ O'sish sur'atining kamayishi

■ O'sish sur'atining ko'payishi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan
Yengil avtomobillar, dona	132 774	186 432

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan
Yuk avtomobillari, dona	3024	4028
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	1073,1	1074,3
Avtomobil dvigatellari, dona	96904	140201
Paxta tolasi, ming t	512,8	325,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	126,7	108,0

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 1,3 m., yengil avtomobillar - 1,4 m., avtomobil dvigatellari - 1,4 m., avtobuslar - 3,8 m., yurguzuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,3 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chamberaklari, rul kolonkalari va rul mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,4 m. ga oshdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t	11585,6	14196,2
Portlandsement, ming t	6132,9	7265,7
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	7844	8136
Dizel yoqilg'isi, ming t.	806,8	763,4



Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan
Avtomobil benzini, ming t	873,2	758,1

Traktorlar, dona

2624

1099

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati



■ O'sish sur'atining kamayishi

■ O'sish sur'atining ko'payishi


Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib o'tgan yilning shu davriga nisbatan, azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 95,6 %), ammoniy sulfat (116,6 %), kaliy xlorid (107,3 %), ammoniy nitrat (113,8 %), karbamid (120,4 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (122,5 %), kaustik soda (134,7 %) ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarida tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,0 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,1 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarida tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan
Elektrenergiya, mln.kVt/s	44195,5	44808,4
Issiqlik energiyasi, ming Gkal	19632,9	19053,8
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub m	244646,0	192362,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,8 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan
Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming t	243,3	151,6
Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, t	3218,0	5361,0
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	121,8	162,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 1,7 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 2,7 martaga, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 2,0 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 26,4 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 33,3 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 76,3 % ga oshganligi kuzatildi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati



Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo



Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo



Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


■ O'sish sur'atining kamayishi

■ O'sish sur'atining ko'payishi

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 79,0 trln.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 15,7 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 33,7 % ni tashkil etdi.

2018 yilning mos davriga nisbatan 2019 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi, %



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,1 % ni (2018-yil yanvar-sentabr oylarida 8,1 %) tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %



Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish, %
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	78978,9	100,0	115,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1632,0	2,1	106,8
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	18468,7	23,4	133,1
Buxoro	3637,6	4,6	107,6
Jizzax	1607,7	2,0	105,6

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda


	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish, %
Qashqadaryo	2702,7	3,4	110,9
Navoiy	2315,8	2,9	103,9
Namangan	4100,1	5,2	113,5
Samarqand	6786,5	8,6	104,6
Surxondaryo	1084,1	1,4	106,8
Sirdaryo	1876,7	2,4	104,2
Toshkent	7300,7	9,2	105,0
Farg'ona	4557,7	5,8	108,7
Xorazm	3917,5	5,0	124,9
Toshkent sh.	17400,4	22,0	108,2

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 71,2 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 30,3 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi - 26,5 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining ulushi - 73,4 % ni tashkil etdi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi


	2019 yil yanvar-sentabr, mlrd. so'm	2018 yil yanvar-sentabrga nisbatan FHI, %
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	234693,1	107,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9421,8	102,5

¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

	2019 yil yanvar-sentabr, mlrd. so'm	2018 yil yanvar-sentabrga nisbatan FHI, %
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	23551,4	118,7
Buxoro	10648,0	105,9
Jizzax	3453,1	104,1
Qashqadaryo	14386,8	95,3
Navoiy	31680,1	101,9
Namangan	6385,9	114,4
Samarqand	11688,6	109,2
Surxondaryo	2882,6	107,6
Sirdaryo	5012,4	101,5
Toshkent	39083,8	109,0
Farg'ona	14348,2	106,5
Xorazm	6147,9	112,0
Toshkent sh.	39104,6	107,0


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,7 %), Toshkent shahri (16,7 %), Navoiy (13,5 %), Andijon (10,0 %), Qashqadaryo (6,1 %) va Farg'ona (6,1 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019-yil yanvar-sentabr oylarida 2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, %)




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Andijon (2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 118,7 %), Xorazm (112,0 %), Toshkent (109,0 %), Namangan (114,4 %), Samarqand (109,2 %), Buxoro (105,9 %) va Farg'ona (106,5 %) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



2019-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollarining o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan %



Shu bilan birga, Andijon (2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 133,1 %), Xorazm (124,9 %), Namangan (113,5 %), Sirdaryo (104,2 %), Buxoro (107,6 %), Farg'ona (108,7 %), Surxondaryo (106,8 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (106,8 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Andijon viloyatida ishlab chiqarilganligini ta'kidlash lozim (respublika iste'mol tovarlarining 23,4%), Toshkent shahri (22,0%), Toshkent (9,2 %) va Samarqand (8,6 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga
to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish, ming so'm**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
O'zbekiston Respublikasi	7007,9	2358,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5012,1	868,2
viloyatlar:		
Andijon	7625,5	5979,8
Buxoro	5588,3	1909,1
Jizzax	2532,7	1179,2
Qashqadaryo	4444,2	834,9
Navoiy	32129,9	2348,7
Namangan	2301,9	1477,9
Samarqand	3053,5	1772,9
Surxondaryo	1112,5	418,4

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
Sirdaryo	5997,1	2245,4
Toshkent	13412,0	2505,3
Farg'ona	3869,4	1229,1
Xorazm	3330,4	2122,1
Toshkent sh.	15441,7	6871,1

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy viloyatida (32129,9 ming so'm), Toshkent shahrida (15441,7 ming so'm), Toshkent (13412,0 ming so'm) va Andijon (7625,5 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (7007,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 2358,3 ming so'm bo'lgani holda Toshkent shahrida - 6871,1 ming so'mni, Andijon viloyatida - 5979,8 ming so'mni, Toshkent viloyatida - 2505,3 ming so'mni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 80,9 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 34,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Namangan (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 76,6 %), Toshkent shahrida (66,9 %), Jizzax (66,4 %), Samarqand (54,5 %), Surxondaryo (51,2 %), Sirdaryo (48,5 %) va Farg'ona (42,7 %) viloyatlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy (12,3 %) va Qashqadaryo (22,1 %) viloyatlarida, Andijon (23,6 %) va Toshkent (27,0 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (23,9 %) kuzatildi.


2019-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Respublikada 68,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 14,7 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,4 %) Toshkent shahriga, 7,5 mingtasi (10,9 %) Farg'ona viloyatiga va 7,3 mingtasi (10,6 %) Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni, birlik
(2019-yil 1 sentyabr holatiga)



2019-yil yanvar-sentabr oylarida Respublikada 15841 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, ularning 51,3 foizi Toshkent shahri, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Andijon viloyatlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019-yil yanvar-sentabr)



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 775 ta loyiha bo'yicha 15,4 trln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 433,9 mln.AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 8524 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 9 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar-sentabrga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi ko'payishi kuzatildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab
chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, birlik	691	775
Korxonalar soni, birlik	291	307
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	11 011,6	15 381,4
Eksport qilingan		
mahalliyashtirilgan	359,6	433,9
mahsulot hajmi, mln. AQSH dollari		
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	771	8 524

**Sanoat statistikasi
boshqarmasi**

Tel.: (71) 230-80-46